

TARIX FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Isaqova Faridaxon Sharofiddinovna

Toshkent shahar Chilonzor tumani

232-umumiy o'rta ta'lif maktabining tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lif tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan ilg'or tajribalar, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar haqida fikr yuritilgan. Maqolada tarix faninini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish haqida fikrlar berilgan. O'tmish va tarixiy xotira insoniyat tarixining barcha davrlarida e'tibor markazida bo'lib kelgan. Mazkur maqolada tarix o'qitish metodikasining insoniyat taraqqiyoti bilan mos ravishda rivojlanish xususiyatlari mahalliy va xorijiy ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Bundan tashqari o'quvchilarga dars o'tish davomida qanday metodlardan foydalanish samara berishi hamda yoshlarda bu fanga qiziqish uyg'otishi to`g`risida mulohazalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: maktab, o'quvchi, tarix, didaktika, metod, qiziqarli o'yinlar, venn diagrammasi, bingo mashqi, interfaol usullar

Аннотация: В данной статье рассматриваются лучшие практики, педагогические технологии и интерактивные методы, которые служат повышению эффективности образовательной системы. В статье приводятся мнения об использовании современных методов в преподавании истории. Прошлое и историческая память находились в центре внимания во все периоды человеческой истории. В данной статье на основе отечественных и зарубежных данных анализируются особенности развития методики преподавания истории в соответствии с прогрессом человечества. Кроме того, студентам была предоставлена информация о том, какие методы использовать на уроке и как вызвать интерес к этой науке у молодежи.

Ключевые слова: школа, ученик, история, дидактика, метод, веселые игры, диаграмма Венна, упражнение в бинго, интерактивные методы.

Abstract: This article discusses best practices, pedagogical technologies, and interactive methods that serve to increase the effectiveness of the educational system. The article gives opinions on the use of modern methods in teaching history. The past and historical memory have been in the center of attention in all periods of human history. In this article, the characteristics of the development of history teaching methodology in accordance with human progress are analyzed based on local and foreign data. In addition, the students were given feedback on what methods to use during the lesson and how to arouse interest in this science among young people.

Key words: school, student, history, didactics, method, fun games, venn diagram, bingo exercise, interactive methods

“Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix,buyuk davlat,buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo’rqmaydigan,adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli buyuk, xalqmiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo’lib, yakdil va ahil bo’lib harakat qilsak, halol-pok bo’lib,yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallahsga,boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqmiz”.

Shavkat Mirziyoyev

Bugungi kunda zamonaviy ta’limni tashkil etishda rolli o‘yinlar va interfaol usullardan samarali foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. O‘quvchilarda muayyan faoliyat yuzasidan egallagan nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta’limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli o‘yinlar, interfaol usullar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida qo’llash nihoyatda qulay bo‘lgan bir qator o‘yinli texnologiyalar yaratilgan. Ta’lim muassasalarida tarix fanlarini o‘qitish uzoq tarixga borib taqaladi. Dunyoning barcha davlatlarida o‘rta maxsus ta’lim muassasalaridan keyin ham har bir davlat oliy ta’lim muassasalarida o‘z yurti tarixini fan sifatida o‘rganish davlat fuqarolarini siyosiy, ma’naviy, iqtisodiy va marifiy dunyoqarashini shakllantirishning eng asosiy tayanchi bo‘lib xizmat qiladi. Maktablarda

ham bu fan o`qitilishi o`quvchilarning o`tmishni o`rganishi va undan xulasalar chiqarishiga sabab bo`lmoqda.

Tarix fanini o`qitishda bu fanga doir tarixiy empatiyadan foydalanish mumkin. Bunda maktab o`quvchilarning bu fanni tushunish doirasi kengayadi va ma`lumotlarni eslab qolish darjasи oshib boradi. Tarixiy empatiyani shakllantirish usullaridan biri tarixiy hodisalarni hikoyasi hisoblanadi. Rus tadqiqotchilarasi asarlarida hikoya usulidan darslarida samarali foydalanish haqida so'z boradi. Ular orasida P.V.Goran, A.A.Vagin, P.S.Leibengrublar alohida qayd etiladi. Hikoya orqali bolalarda empatiya shakllanishiga hissa qo'shish uchun A.A.Vagin tomonidan aytilganidrek turli xil maxsus vositalardan foydalanish talab etiladi. Tarixiy empatiya shakllanishining yana bir usuli, bu shaxsiyatdir. Ta'lif oluvchining qalbida taqdirlar, harakatlar, hayot sharoitlari, tarixiy shaxsning faoliyati haqida tasavvur taixiy shaxsning holati va faoliyatini ijtimoiy hayotdagi odatiy hodisa sifatida tushunishga imkon beradi.¹

Masalan hozir tarix darslarini o`tish uchun foydali bo`ladigan “Venn diagrammasi” haqida gaplashamiz. “Venn diagrammasi” qiyosiy taxlilda juda qo‘l kelib, mavzuni sharhlab, ikki muammoni yoki davlatni bir-biriga muqoyasa qilib o`tishda qulay usuldir. Bu usul ikki doira shaklidagi aylana chiziqlarning qo‘silishi holatida bo‘lib doiralarning ikki tarafiga tanlangan mavzuning faqat o‘ziga xos individual xususiyatlari yozilib, o‘rtada ikki doiraning qo‘silishi natijasida paydo bo‘lgan bo‘shliqda esa tanlangan ikki mavzuga xos turli fikrlar, xususiyatlar g‘oyalar ko‘rinishi izohlab boriladi. Bir qarashda oddiydek tuyulgan bu usul o`quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, xotirani kuchaytiradi. U yoki bu mavzu ustida mustaqil ishlashga undaydi. Ikki mavzuning umumiyligi va individual, ya’ni faqat o‘ziga xos tomonlarini tez farqlaydi. Mavzu tez va uzoq vaqt esda qoladi. “Venn diagrammasi” o`quvchini hushyorlikka, sezgirlikka chorlaydi. O`quvchilar 4-5 tadan uch guruhga, jami 15 taga ajratiladi. 1-guruh doiraning o‘ng tomoni, 2-guruh doiraning chap tomoni, 3-guruh ikki doiraning qo‘silishidan paydo bo‘lgan bo‘shliq ustida ishlaydi. Mavzuni keng qamrovli o‘zlashtirib olishga ko‘maklashadi. Guruhdagi qolgan o`quvchilar esa kuzatuvchilardir, ya’ni “Venn

¹ <https://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/download/1862/1722/1909>

diagrammasi” ustida ishlayotgan 3 guruhning harakatlarini kuzatadilar. Hatto baholashlari ham mumkin. Dars, mavzu, harakatlar uzoq vaqtgacha esda saqlanib qoladi. “Venn diagrammasi” turli xil g`oya, fikrlar kurashi va hujumini, munozaralarni keltirib chiqaradi. O‘quvchilarni o‘ylantiradi, mustaqil fikrlashga undaydi.

Rol ijro etish o‘yinlari – unda konkret shaxsning xulqi, xatti-harakati, o‘z vazifalari va majbiriyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi. Bu o‘yin orqali tarix darslarida tarixiy shaxslarni shaxsiyatini mukammal bilishda foydalaniladi. Masalan, To‘maris, Shiroq, Sitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddijn Kubro, Amir Temur, Xusayn Bayqoro, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Shayboniyxon, Amir Olimxon, Nodira, Xudoyorxon, Muhammad Rahimxon II va Dukchi Eshon kabi shaxslarbo‘lishi mumkin. Yuqoridagi didaktik o‘yinlar va interfaol usullar orqali o‘quvchilarning dars jarayoniga qiziqishi ortadi hamda o‘quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Bingo mashqi. Keltirilgan ma’lumotlarni bir-biriga mos bo‘lgan javoblar oldidan raqamlarini qo‘ying.

1	Aksionerlik jamiyati	Savdo yoki ishlab chiqarish huquqi yoki imtiyozini beruvchi hujjat
2	Burjuaziya	Aksiyadorlar jamiyati foydasining aksiya egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylanadigan qismi
3	Dividend	Savdo sohasida tanho hukmronlik qiluvchi tashkilotlar
4	Savdo monopoliyasi	Aholining savdo-sanoat, bank kabi sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish natijasida daromad topuvchi hamda ishlab chiqarishda yollanma mehnatdan foydalanuvchi toifasi
5	Negosiant	Daromad topish maqsadida hissadorlik qoidalari asosida uyushgan sherikchilik jamiyati
6	Patent	Ulgurji savdo bilan shug‘ullanuvchi savdogar

Tarix fani bu maktab o‘quvchilarning ham kelajak hayotida muhim o`rin tutadi. Tarix fanini maktablarda va oliy ta`lim muassasalarida o`qitishda bu fanga doir tarixiy empatiyadan foydalanish mumkin. Bunda maktab o‘quvchilarning bu fanni tushunish doirasini kengayadi va ma`lumotlarni eslab qolish darajasi oshib boradi. Tarixiy empatiyani shakllantirish usullaridan biri tarixiy hodisalarini hikoyasi hisoblanadi. Shuningdek,

o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha mustaqil ravishda krossvord tuzish topshirig'ini bajarishi ham mustaqil bilim olishning bir turini tashkil etadi. Krossvord barcha fanlar bo'yicha tuzilishi mumkin. Krossvordning yuqorida keltirilgan jihatlari tarix darslarida qo'llanishi uchun to'liq asos bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, maktablarda tarix fanini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish samaralidir. Viskonsin universiteti tadqiqotchilari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, maktabdagagi qiziqarli o'yinlar, albatta, o'quvchilarning diqqatini sezilarli darajada oshiradi. O'quvchilaringiz sinfda o'yin o'ynashga qiziqayotganini ko'rish qiyin emas, chunki sinfdagi qiziqarli o'yinlar ko'pincha ko'tarinki bo'ladi va g'alaba qozonish uchun katta e'tibor talab etiladi. Motivatsiya: o'ndan ortiq marta, talabalar ko'pincha qiziqarli o'yinni o'z ichiga olgan bo'lsa, dars yoki sinfni kutishadi. Va agar ular dars jarayonida motivatsiyani his qilsalar, ular hatto eng qiyin o'rganish to'siqlarini ham yengib o'tishlari mumkin.² Darslarni qiziqarli tarzda tashkil etish dasrda qo'llanayotgan metodlardan tashqari, o'qtuvchining o'zi ham pedagogik mahoratini ko`rsata olishi zarur. Bu ikkisi birlashsagina dars qiziqarli va tushunarli bo'ladi. Va shuni ham unutmaylikki " Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q".

Foydalanilgan adabiyotlar:

Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiyalar – hayotiy ehtiyoj. Xalq ta'limi jurnali, 2001, 3-soni.

2. Pedagogika. Pedagogicheskie teorii sistemi, texnologii. Pod.red. S.A.Smirnova. – M.: Akademiya, 2004.

3. Aqchayev F.Sh. Tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Jizzax, 2014.

4. Abdujabbarova M.A. Tarix darslarida qiziqarli o'yinli usullardan foydalanish. "Science and education" scientific journal. September 2020/Volume 1 Issue 6

5. Farrux Aqchayev. Tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. O'quv uslubiy qo'llanma. Jizzax- 2014 "Sangzor" nashriyoti

6. <https://cyberleninka.ru/article/n/tarix-fanini-o-qitishda-innovatsion-texnologiyalarni-ko-llashning-ayrim-dozlarb-masalalari>

7. <https://ahaslides.com/uz/blog/17-fun-games-to-play-in-class-all-grades/>

² <https://ahaslides.com/uz/blog/17-fun-games-to-play-in-class-all-grades/>